



Shodiya MAHMUDOVA

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

E-Mail:shodiyamahmudova600@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor Tursunali Jumayev taqrizi asosida

TALABALARNING LINGVO-METODIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS ASPEKTLARI
Annotatsiya.

Ushbu maqolada talabalarning lingvo-metodik tafakkurini rivojlantirish masalasi nazariy jihatdan tahlil etilgan. Muallif tilshunoslik va metodika o'rtasidagi uzviy aloqadorlik, integrativ yondashuvning samarasi hamda pedagogik tafakkur mexanizmlarining faoliyatini ochib beradi. Tadqiqot jarayonida lingvo-metodik tafakkur tushunchasining ilmiy mohiyati, uni shakllantirish bosqichlari va o'qituvchi tayyorlash jarayonidagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Maqola ilmiy va badiiy uslub uyg'unligida yozilgan bo'lib, zamonaviy ta'limning metodik asoslari hamda shaxsiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish omillarini yoritadi.

Kalit so'zlar: lingvo-metodik tafakkur, refleksiya, kompetensiya, metodika, integrativ yondashuv, tafakkur bosqichlari.

SPECIFIC ASPECTS OF DEVELOPING STUDENTS' LINGUO-METHODOLOGICAL THINKING

Abstract

This article theoretically analyzes the issue of developing students' linguo-methodical thinking. The author reveals the interconnection between linguistics and methodology, the effectiveness of an integrative approach, and the functioning of pedagogical thinking mechanisms. The scientific essence of linguo-methodical thinking, its developmental stages, and its importance in teacher training are discussed. Written in a blend of academic and literary style, the article highlights modern methodological foundations of education and the factors influencing the development of reflective and independent thinking.

Keywords: linguo-methodical thinking, reflection, competence, methodology, integrative approach, cognitive development.

ОСОБЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЛИНГВО-МЕТОДИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье теоретически анализируется проблема развития лингво-методического мышления студентов. Автор раскрывает взаимосвязь между лингвистикой и методикой преподавания, эффективность интегративного подхода, а также особенности функционирования педагогического мышления. Научная сущность понятия «лингво-методическое мышление», его этапы формирования и значение в процессе подготовки будущего преподавателя рассмотрены в контексте современных образовательных требований. Статья написана в научно-художественном стиле, что способствует её глубине и выразительности.

Ключевые слова: лингво-методическое мышление, рефлексия, компетенция, методика, интегративный подход, когнитивное развитие.

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasida talaba endi bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil tahlil etuvchi, qayta ishlovchi va yangi g'oyalar yaratuvchi subyekt sifatida qaraladi. Shu bois, lingvo-metodik tafakkur masalasi hozirgi ta'limda alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tafakkur turi o'qituvchilik kasbining intellektual poydevorini tashkil etadi — u tilshunoslik nazariyasini o'qitish metodikasi bilan uyg'unlashtirish, o'quv jarayoniga refleksiv yondashish va ijodkorlikni namoyon etish imkonini beradi [1, p 4].

Lingvo-metodik tafakkur bu — til hodisalarini anglash, ularni metodik jihatdan tahlil qilish, ta'lim jarayoniga tatbiq etish va o'z pedagogik qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish qobiliyatidir [2, p76]. Bu jarayon tilshunoslik bilimlarining faqat nazariy emas, balki amaliy yo'nalishda, ya'ni o'qituvchilik faoliyati bilan uyg'unlashgan holatda shakllanishini taqozo etadi.

Bugungi global axborot maydonida o'qituvchi nafaqat tilni o'rgatuvchi, balki fikrlash madaniyatini shakllantiruvchi shaxs sifatida maydonga chiqmoqda [3, p 114]. Shu boisdan, o'qituvchini tayyorlashda lingvo-metodik tafakkurni rivojlantirish — ta'lim sifatining strategik mezonidir.

Til va metodika fanlarining o'zaro integratsiyasi Vygotskiy [4, p 89] ta'limotiga ko'ra, inson tafakkuri va nutqining o'zaro ta'sirida yuzaga keluvchi yuqori psixik jarayonlar sifatida izohlanadi. Shuning uchun talaba o'z o'quv

faoliyatida tildan nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki fikrlash quroli sifatida foydalanishni o'rganmog'i lozim. Lingvo-metodik tafakkurni shakllantirish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, u lingvistik bilimlar (til tizimini chuqur tushunish), metodik kompetensiyalar (ta'lim jarayonini tashkil etish), refleksiv fikrlash (o'z faoliyatini tahlil qilish) uyg'unligida rivojlanadi. Bu uchlik bir-birini to'ldirib, talabaning mustaqil fikrlovchi, izlanuvchan va o'z pedagogik uslubini yaratishga qodir shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot metodologiya (Research Methodology). Talabalarning lingvo-metodik tafakkurini rivojlantirish jarayonini tadqiq etish, avvalo, mazkur hodisaning nazariy poydevorini aniqlashni talab etadi. Chunki tafakkur bu — inson ongining eng yuqori shakli bo'lib, u til orqali voqelikni aks ettiradi, tilda esa inson tafakkurining izlari mujassamdir [5, p 112-115]. Shundan kelib chiqib, lingvo-metodik tafakkur tushunchasini o'rganishda lingvistik, psixologik, pedagogik va metodik yondashuvlarning integratsiyasi asosiy metodologik yo'nalish sifatida tanlandi.

Tadqiqotning nazariy manbalari sifatida L.S. Vygotskiy, J. Dewey, D. Brown, J. Richards, M. Qodirova va D. Safarovalarning fikrlari tahlil qilindi. Ayniqsa, Vygotskiyning "fikrlash va nutq" o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqidagi g'oyalari lingvo-metodik tafakkurning psixolingvistik mohiyatini ochib berishda tayanch vazifasini

o'taydi. Tilshunoslik metodikasida esa J. Richards tomonidan ilgari surilgan "integrativ yondashuv" konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, til o'rganish jarayonida nazariya va amaliyot bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro mustahkamlovchi unsurlardir. Shu sababli lingvo-metodik tafakkur, o'z navbatida, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq eta olish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Integrativ yondashuv — tilshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlarining o'zaro uyg'unlashuvi asosida talaba tafakkurini har tomonlama rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda talaba til hodisalarini faqat lingvistik jihatdan emas, balki ularning metodik qo'llanilish kontekstida ham tahlil qiladi. Masalan, "so'z yasash" mavzusi o'rganilayotganda talaba nafaqat affiksatsiya jarayonini tushunadi, balki bu bilimni dars o'tishda qanday usul bilan o'rgatish mumkinligini ham aniqlaydi. Integrativ yondashuvning amaliy natijasi shundaki, u talabalarda tilni o'rgatishning nazariy va amaliy birlik tamoyilini shakllantiradi. Refleksiya — o'z fikr va faoliyatini tahlil etish, xatolarni anglab, ularni to'g'rilashga intilish jarayonidir. D. Safarov ta'kidlaganidek, refleksiv tafakkur — o'qituvchi kasbiy madaniyatining asosi bo'lib, u shaxsni o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Tadqiqotda refleksiv yondashuv talabaning o'z o'qituvchilik faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qarashini ta'minlaydi. U dars jarayonidagi har bir qarorni tahlil qilish, o'z o'quvchilari bilan muloqotda metodik moslashuvchanlikni qo'llay olishni o'rgatadi. Shu jihatdan, lingvo-metodik tafakkur refleksiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u "fikr ustidan fikrlash" (metacognitive reflection) jarayonini faollashtiradi. Kompetensiyaviy yondashuvning markazida talabaning nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga integratsiyalash qobiliyati turadi

D. Brown ta'kidlaganidek, zamonaviy o'qituvchi "bilim egasi" emas, balki "o'quv jarayonining tashkilotchisi" sifatida shakllanishi lozim. Shu sababli lingvo-metodik tafakkur talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, holatga mos metodni tanlash, darsni kreativ yo'sinda tashkil etish malakasini shakllantiradi.

Tadqiqot natijasida lingvo-metodik tafakkurning quyidagi nazariy modeli taklif qilindi: Asosiy komponent: til va metodika o'rtasidagi integratsiya; Fikrlash mexanizmi: refleksiv va analitik faoliyat; Natija: mustaqil, ijodkor, metodik jihatdan yetuk shaxs.

Mazkur model o'z mohiyatiga ko'ra, tilshunoslik bilimlarini o'qitish metodikasi bilan uyg'unlashtirish orqali kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirishni maqsad qiladi.

Tahlil va natijalar: O'tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarining lingvo-metodik tafakkuri ko'p bosqichli, o'zaro bog'langan jarayon bo'lib, u uch asosiy yo'nalishda shakllanadi: kognitiv, refleksiv va amaliy-metodik.

Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, talabaning lingvo-metodik tafakkuri avvalo kognitiv faoliyat orqali yuzaga keladi, ya'ni til hodisalarini nazariy tahlil qilish, ularning tuzilmasini va kommunikativ funksiyasini chuqur anglashdan boshlanadi [6, p 94]. Bu bosqichda talabalar o'qituvchi ko'magida lingvistik tushunchalarni amaliy faoliyat bilan bog'lashni o'rganadilar. Masalan, leksik birliklarning semantik tahlilini o'tkazish bilan birga, ularni darsda o'qitishning samarali metodlarini ishlab chiqishadi. Kognitiv jarayonlarning faollashuvi shuni ko'rsatadiki, talaba o'z tafakkurida tilni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida idrok eta boshlaydi, bu esa metodik qarorlarni qabul qilishda mustaqillikni oshiradi [7, p 80-81].

Refleksiv tafakkur talabaning o'z o'quv faoliyatini tahlil etish, o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, xatolardan saboq olish jarayonini bildiradi. Ushbu bosqichda o'qituvchi o'z darslarini nafaqat tashkil etadi, balki ularni tahlil va o'zgarish manbai sifatida ko'radi.

Jon Dyui ta'limotida refleksiya "tajribadan o'rganish" sifatida talqin qilinadiki, bu, aslida, lingvo-metodik tafakkurning yuragi hisoblanadi. Chunki refleksiyasiz metodik tafakkur statik bo'lib qoladi, unda ijodkorlik va yangilik uchun joy qolmaydi.

Lingvo-metodik tafakkurning uchinchi komponenti — amaliy-metodik faoliyatdir. Bu bosqichda nazariy bilimlar dars jarayonida amaliyotga aylanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarda metodik tafakkurni shakllantirishning eng samarali shakllari quyidagilardir:

1. Integrativ mashg'ulotlar — lingvistika va metodika fanlarini birgalikda o'rganish asosida tahlil qilish;

2. Refleksiv seminarlar — talabalar o'z dars loyihalarini taqdim etib, tahlil va baholashda faol ishtirok etishadi;

3. Kasbiy muhit modellashtirish — o'qituvchilik jarayonini simulyatsiya qilish orqali real pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilishga tayyorlanish;

4. Portfolio tahlili — o'z faoliyati haqidagi yozma tahlillar orqali tafakkur dinamikasini kuzatish [8, p 45].

Mazkur shakllar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tanqidiy yondashuvini va o'zini baholash madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi. Lingvo-metodik tafakkur o'qituvchi shaxsining kasbiy-madaniy o'zligini belgilovchi asosiy indikator hisoblanadi. Tafakkurning rivojlanishi refleksiya va integratsiya o'rtasidagi uzviy aloqa tayanadi. Ta'lim jarayoniga metodik refleksiya kiritilganda, talabalar o'z faoliyatini nazariy asoslay oladigan darajaga yetadi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalarining tilni tahlilviy o'rganish darajasi sezilarli oshadi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi [9, p 21].

Shunday qilib, lingvo-metodik tafakkur — bu nazariy bilimlar, amaliy tajriba va refleksiv tahlilning sintezi bo'lib, u o'qituvchi shaxsining ilmiy va ijodiy yetuklik darajasini ko'rsatadi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, lingvo-metodik tafakkur rivoji — bu oddiy didaktik ko'nikma emas, balki tafakkur madaniyatining shakllanish jarayonidir.

Uning rivojida lingvistik tahlil — ilmiy asos rolini o'ynaydi; refleksiya — fikrlash mexanizmi vazifasini bajaradi; metodika — amalga tatbiq vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bularning barchasi integratsiyalashgan holda o'qituvchining kasbiy tafakkurini boyitadi, uni yangilikka ochiq, metodik jihatdan mustaqil va ijodiy shaxs sifatida shakllantiradi [10, p 95].

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarining lingvo-metodik tafakkurini rivojlantirish — bu oddiy o'quv faoliyati emas, balki shaxsning kasbiy o'zligini shakllantiruvchi ilmiy-ijodiy jarayondir. Lingvo-metodik tafakkur tilshunoslik, metodika va psixologiyaning kesishgan nuqtasida shakllanadi. U o'qituvchiga nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Integrativ yondashuv mazkur tafakkur turini rivojlantirishda markaziy o'rinni egallaydi, chunki u fanlararo bog'liqlikni ta'minlaydi va fikrlashning tizimlilik darajasini oshiradi. Refleksiya lingvo-metodik tafakkurning ichki mexanizmini tashkil etadi — u o'qituvchini o'z faoliyatini tahlil etuvchi, takomillashtiruvchi va yangilovchi sub'yekt sifatida shakllantiradi. Kompetensiyaviy model talabalarda til va metodika o'rtasidagi uzviy aloqani amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmasini mustahkamlaydi. Lingvo-metodik tafakkur rivoji o'qituvchini kasbiy refleksiya, ijodkorlik va mustaqil fikrlash darajasiga olib chiqadi. Xulosa qilib aytganda, lingvo-metodik tafakkurni rivojlantirish — bu o'qituvchini "bilim beruvchi" emas, balki bilim yaratishga yetaklovchi shaxs sifatida shakllantiruvchi jarayondir. U nafaqat kasbiy kompetensiyani, balki tafakkur madaniyatini, intellektual mas'uliyatni va pedagogik ijodkorlikni ham rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Vygotsky, L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press, 1978. [p 4]
2. Leontev, A.N. *Activity, Consciousness, and Personality*. Prentice Hall, 1978. [p 76]
3. Ellis, R. *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford University Press, 2008. [p 114]
4. Dewey, J. *How We Think*. D.C. Heath & Co, 1933. [p 89]
5. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press, 2014. [p 112-115]
6. Kolb, D.A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall, 1984. [p 94]
7. Hymes, D. *On Communicative Competence*. In *Sociolinguistics*, Penguin Books, 1972. [p 80-81]
8. Galskova, N.D., & Gez, N.I. *Teoriya obucheniya inostrannym yazykam: Lingvodidaktika i metodika*. Moskva: Akademiya, 2006. [p 45]
9. Abdug'aniyeva, X. *Til ta'limida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. [p 21]
10. Savignon, S. *Communicative Competence: Theory and Classroom Practice*. McGraw-Hill, 1997. [p 95]